

Xizmatlar sohasi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-mart

Raqamlar:


- 2018 yil yanvar-mart oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi - **2150,4 mlrd. so'm.**
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 125,5 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 577,0 ming so'mni tashkil etdi.

Zamonaviy dunyoda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ko'rsatilayotgan bozor xizmatlari turlarining ro'yxati juda xilma-xil bo'lib, bular savdo va transport xizmatlaridan tortib moliyaviy, sug'urta va turli xil vositachilik xizmatlaridan iborat.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida chora-tadbirlarning davom ettirilishi xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish imkonini bermoqda. Natijada, Viloyatimizda 2018 yil yanvar-mart oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi 2150,4 mlrd. so'mni tashkil etdi .

Bozor xizmatlarning eng katta hajmi savdo xizmatlari, transport xizmatlari, moliyaviy xizmatlar, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari, ta'lim sohasidagi xizmatlar va shaxsiy xizmatlarda kuzatilmogda.


2018 yil yanvar-mart oylarida xizmatlar tarkibi, % da



Xizmatlar tarkibida eng katta ulush - savdo xizmatlari (31,8 %), transport xizmatlari (27,4 %), moliyaviy xizmatlar (9,1 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,5 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (4,4 %), shaxsiy xizmatlar (4,3 %) tashkil qildi.

Xizmatlar jamiyat hayotining muhim sohasi bo'lib, hayot darajasini oshirishning asosiy omili hisoblanadi. Bugungi kunda xizmat amaliyotida xizmat faoliyatini tashkillashtirishning o'ziga xos jihatlari va xususiyatlari belgilangan.


Xizmatlar ishlab chiqarish hajmining taqqoslanishi, mlrd.so'm



Xizmatlar sohasida xizmat hajmining oshishi bir qator omillarning ta'siri bilan izohlanadi. Jumladan, bozorda yangi turdag'i xizmatlarning paydo bo'lishi, masalan: kredit kartalari orqali to'lovlar, internet savdo, yangi savdo markazlari, mehmonxonalarning tashkil etilishi, ta'lim xizmatlarini kengaytirish, dam olish sohasidagi tanlovning kengayishi shular jumlasidandir.

Ta'kidlash joizki, jismoniy va yuridik shaxslarning xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun xizmatlar sohasini hududlarda muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishini ta'minlamasdan turib respublika iqtisodiyotining yirik tarmog'i sifatida xizmatlar sohasini jadal rivojlantirib bo'lmaydi.

**2018 yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, % da**



2018 yil yanvar-mart oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (144,5 %), moliyaviy xizmatlar (125,5 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (119,1 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (114,0 %), ta'lif sohasidagi xizmatlar (106,0 %) kabi xizmatlarning o'sish sur'atlari yuqori sur'atlarda oshdi.

**2018 yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha
xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**


	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Samarqand viloyati	2150,4	106,1
Samarqand sh.	1351,1	107,4
Kattaqo'rg'on sh.	48,0	104,1
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	49,9	102,9

Bulung'ur	50,3	103,4
Jomboy	53,6	103,9
Ishtixon	52,5	102,5
Kattaqo'rg'on	48,9	102,8
Qo'shrabot	39,5	101,9
Narpay	46,7	102,9
Payariq	50,7	103,3
Pastdarg'om	65,6	103,8
Paxtachi	39,7	101,5
Samarqand	84,3	106,9
Nurobod	47,8	102,7
Urgut	66,8	106,2
Tayloq	55,0	105,5

Hududlar o'rtaida eng katta hajm Samarqand shahri (1351,1 mlrd.so'm), Samarqand (84,3 mlrd.so'm), Urgut (66,8 mlrd.so'm), Pastdarg'om (65,6 mlrd.so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.


Eng kam hajm Qo'shrabot (39,5 mlrd.so'm), Paxtachi (39,7 mlrd.so'm), Narpay (46,7 mlrd.so'm) tumanlarida kuzatilmoqda.

2018 yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, % da




Hududlar bo'yicha xizmatlar umumiyligi hajmida eng katta ulushni Samarqand shahri (62,8 %), Samarqand (3,9 %), Urgut (3,1 %), Pastdarg'om (3,1 %) tumanlari egallaydi.

2018 yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 577,0 ming so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 104,1 % ni tashkil etdi.



2018 yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Samarqand shahrida - 2546,3 ming so'm qayd etilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 106,1 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga xizmat ko'rsatishning eng past ko'rsatkichi Urgut tumanida kuzatildi - 138,4 ming so'm, o'sish sur'ati esa 103,7 % ni tashkil etdi. Bu, mazkur tumanda aholi ko'pligi bilan izohlanadi.

Viloyat statistika boshqarmasi Xizmatlar

sohasi statistikasi bo'limi

Mas`ul: A.Abdullayev

(71) 230-85-35